



6-7 YOSHLI BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHDA IJTIMOIY-HISSIY KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI

Sayidova Xumorxon

Qo'qon davlat universiteti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

Ilmiy rahbar: **Oxunova Xabiba Irisqulovna, phd dotsent**

Annotatsiya: Yosh avlodni barkamol, sog'lom va komil inson ruhida tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada 6-7 yoshli bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda ijtimoiy-hissiy ko'nikmalarni shakllantirishning ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: maktab faoliyatida uyg'unlashuv, ijod qilish, sog'lom va yetuk, milliy qadriyatlar, milliy an'analar, milliy tarbiya, maktab ta'limi, ta'limga sifatli tayyorlash.

Abstract: It is important to educate the young generation in a mature, healthy and perfect human spirit. This article talks about the importance of preparing 6-7 year old children for school education.

Keywords: harmony in school activities, creativity, healthy and mature, national values, national traditions, national education, school education, quality preparation for education.

Аннотация: Важно воспитывать молодое поколение в гармоничном, здоровом и гармоничном человеческом духе. В этой статье обсуждается важность развития социально-эмоциональных навыков в подготовке детей 6-7 лет к обучению.

Ключевые слова: гармонизация в школьной деятельности, креативность, здоровье и зрелость, национальные ценности, национальные традиции, национальное образование, школьное образование, качественная подготовка к образованию.

Jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqiyotini jadallashtirish, inson omilini vujudga keltirish davr talabiga aylandi. Maktabga tayyorlov guruh bolalarini sog'lom va yetuk bo'lish masalalari hamisha insoniyatni qiziqtirib kelgan va ijod qilishga yo'naltirgan masalalardan biridir. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishishi, jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan poklanish, ma'naviy va jismoniy barkamol yosh avlodni tarbiyalash borasida ham jiddiy o'zgarishlar qilishni taqozo etdi. Jumladan, yoshlarni jamiyatdagi o'rni, yoshlarni tarbiyalashga bog'liq milliy an'analar, sermazmun milliy qadriyatlarning ildizlari ajdodlarimiz merosini o'rganish va ommalashtirish milliy tarbiyada umuminsoniy qadriyatlarning o'rnini yuksaltirish va uning maktab faoliyatida uyg'unlashuvini ta'minlash, o'zbek oilasiga xos xususiyatlarni

(mentalitetini) yaratish va keng targ’ib etish jamiyatning asosiy negizi hisoblanmish istiqloq mafkurasiga mos shaklan va mazmunan shakllantirish bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlashning garovidir.

Tayyorlov guruh bolalarini maktab ta’limiga maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanayotganida tayyorlanadi. Bunda u maktabda o’quvchilarga qo’yiladigan har xil talablar bilan tanishadi, fan asoslarini o’rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo’ladi. Ta’limga psixologik tayyorlik deganda, bolaning ob’ektiv va sub’ektiv jihatdan maktab talabiga munosibligi nazarda tutiladi. U maktab ta’limiga avval psixologik jihatdan tayyorlanadi. Binobarin, uning psixikasi bilim olishga etarli darajada rivojlanadi. 6-7 yoshdagi bola idrokining o’tkirligi, ravshanligi, sofligi, aniqligi, o’zining qiziquvchanligi, dilkashligi, xayrixohligi, ishonuvchanligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolliigi bilan boshqa yoshdagi bolalardan ajralib turadi. Maktab ta’limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo’ladi. Bola diqqatining xususiyatlari roli va syujetli o’yinlarda, rasm chizish va qurish-yasash mashg’ulotlarida, loy hamda plastilindan o’yinchoqlar tayyorlashda, o’zgalar nutqini idrok qilish va tushunishda, matematik amallarni yechishda, hikoya tinglash va tuzishda ko’rinadi. Bola o’z diqqatini muayyan ob’ektga yo’naltirish, to’plash, taqsimlash bo’yicha ma’lum darajada ko’nikmaga ega bo’lib, o’z diqqatini boshqarish va kerakli paytda to’plashga intiladi. Uning xotirasi qiziqarli, ajoyib-g’aroyib, kishini taajjubga soladigan ma’lumot va hodisalarni puxta esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish imkoniyatiga ega bo’ladi. Shu davrgacha bevosita kattalar rahbarligida u yoki bu axborotlarni o’zlashtirib kelgan bo’lsa, endi o’z xohish-irodasi bilan zarur ma’lumotlar to’plashga, o’z oldiga aniq maqsad va vazifa qo’yishga harakat qiladi, bolaning ana shu faolligi xotirasining muayyan darajada rivojlanganini bildiradi. U she’r, hikoya va ertaklarni esda qoldirish uchun go’yo takrorlashi, yod olishning eng qulay yo’l va usullaridan foydalanishi ta’lim jarayonida unga juda qo’l keladi. Birinchi sinf o’quvchisi ko’pincha yaqqol obrazli xotiraga suyanib bilish faoliyatini tashkil etsa ham, bu ish xotiraning boshqa turlarini inkor qilmaydi, aksincha, ta’lim so’z–mantiq xotirasini taqozo etadi. So’z–mantiq xotirasining mavjudligi ma’nosini tushunib esda olib qolish jarayonining samaradorligi ortishiga keng imkoniyat yaratadi. Tajribadan ma’lumki, bola ma’nosiz so’zlardan ko’ra ma’nodor tushunchalarni birmuncha tez va mustahkam eslab qolish xususiyatiga ega. Uning nutqi maktab ta’limiga tayyorgarlik bosqichida kattalar bilan muloqotga kirishish, kishilarning fikrini uqib olish va to’g’ri idrok qilish darajasida, nutqining tuzilishi esa grammatika qoidalariga mos, mantiqan izchil, ifodali, miqdor va ko’lam jihatdan fikr almashishga yetarli bo’ladi.

Yirik psixologlarning tadqiqotlariga qaraganda oqilona tashkil qilingan ta’lim jarayoni mazkur yoshdagi bolalarning tafakkurini jadal rivojlantiradi. Masalan, ular lingvistika, fizika, matematikaga doir ilmiy tushunchalarni o’zlashtiradilar, soddaroq masalalar tuzadilar, engilroq mashqlarni bajara oladilar, ijodiy va mahsuldor fikr yuritishga intiladilar. 1. Olti yoshli bolaning maktab ta’limiga psixologik jixatdan tayyorligining obektiv tomoniga reja asosida, tartibli, maqsadga yo’naltirilgan, bola turmushi va faoliyatining tafovutlari, sharoitlari, o’ziga xosligi, uning sihat-salomatligi, usuliy jihatdan tayyorgarligi, oddiy ko’nikmalarni o’zlashtirgani kabi omillar kiradi. 2. Bolani maktab ta’limiga psixologik tayyorlanishining sub’ektiv tomoniga esa uning

maktabda o’qish xohishi, intilishi, katta yoshdagi odamlar bilan muloqotga kirishish istagi mazkur tayyorgarlik bilan uzviy bog’liqdir. Bolada shu davrga kelib, o’qish, bilim olish haqida to’g’ri tasavvur shakllanadi. U maktab jamoasi a’zolarining mas’uliyatli vazifalarini anglaydi va ularga itoat qilishga, ularning ko’rsatmalarini bajarishga moyil bo’ladi

Xulosa qilib aytganda, bola maktab o’quvchisi bo’ldi. Uning hayotida burilish yuzaga keldi. Uning asosiy faoliyati, birinchi va eng muhim vazifasi o’qish, ya’ni yangi bilimlarni ko’nikma va malakalarni orttirishdan, tabiat hamda jamiyat haqida sistemali ma’lumotlar to’plashdan iborat bo’lib qoladi. O’z-o’zidan ma’lumki, kichik maktab yoshidagi o’quvchilarda o’qishga nisbatan yuksak javobgarlik munosabati birdaniga tarkib topib qolmaydi. Garchi bunda anchagina individual farqlar kuzatilsa ham, o’qishga bo’lgan munosabatlar va motivlarning rivojlanish dinamikasi odatda qonuniy xarakterga ega bo’ladi. Yuqorida ko’rsatib o’tilganidek, odatda, yetti yoshli bolalar ta’limning boshlang’ich davrida maktab mashg’ulotlarining yaqin kelajakdagi istiqbollarini ijobiy idrok qiladilar. Bolalarda hatto xarakterli xususiyatlari jihatidan farq qiladigan o’ziga xos ehtiyoj ham bor. Bu aslida, hali o’qishga, bilim, ko’nikma va malakalarni o’zlashtirishga bo’lgan ehtiyoj emas, biron yangi narsani, tevarak-atrofdagi voqelik hodisalarini bilishga bo’lgan ehtiyoj ham emas, balki o’quvchi bo’lish ehtiyojidir desak mubolag’a bo’lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. F.R.Qodirova. R.M Qodirova. ‘Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi’. T., ‘Istiqlol’, 2006.

2. Axmedjanov M.M., Xo’jaev B.Q., Hasanova Z.D. Pedagogik mahorat- Buxoro Davlat universiteti, 2014

3. Manzura, N. (2021). Sustainable Activity in the Teaching Profession and Its Foundations. *Psychology and Education Journal*, 58(2), 1339-1345.

4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar / Ta’lim muassasalari o’qituvchi-o’qituvchilari uchun amaliy tavsiyalar. – T.: “Iste’dod” jamg’armasi, 2008. – 180 b.